

TA'LIM OLISH MUHITINI TAKOMILLASHTIRISHDA XALQARO TADQIQOTLARNING O`RNI

Mambekova Shaxnoza Kudiyarbekovna

Stajor o`qituvchi

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika
universiteti "Texnologik ta'lim metodikasi" kafedrasida*

shaxnozamambekova@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada xalqaro tadqiqotlar mazmuni, ularning ahamiyati hamda ta'lim olish muhitini takomillashtirishda, kadrlar malakasini oshirishda xalqaro tadqiqotlarning o`rni va ahamiyati haqida so`z boradi


Kalit so`zlar: xalqaro tadqiqotlar, malaka, ta'lim, ta'lim muhiti, inson kapitali.

“Bugun har bir o`qituvchi va tarbiyachi, oliygoh domlasi ta'lim va ilm-fan sohasidagi eng so`nggi ijobiy yangiliklarni o`quv jarayonlariga tatbiq eta oladigan, chuqur bilim va dunyoqarash egasi, bir so`z bilan aytganda, zamonamiz va jamiyatimizning eng ilg`or vakillari bo`lishlari kerak...”, deydi bu borada davlatimiz rahbari Sh.M. Mirziyoyev.

Bugungi kunda, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish va ta'lim sifatini shaffof baholashga qaratilgan xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish bo'yicha tayanch maktablarning maqsadi, vazifalari, asosiy faoliyati bo'yicha ishlar tashkil etilgan. Tayanch maktablar fan o`qituvchilarini yo`nalishi bo'yicha, xalqaro baholash dasturlariga o`qituvchilar va o`quvchilarning munosib tayyorgarlik ko`rishi, ularni o`qitish sifatini oshirish maqsadida yaratilgan. Tayanch maktablarning maqsadi, zamonaviy o`qitish texnologiyalari qo`llagan holda bilimlarni nazorat qilish turlari va shakllarini joriy etish orqali ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro (PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS) tadqiqotlarda munosib ishtirok etishga tayyorgarlik ko`rish borasida hududdagi umumta'lim maktablari pedagog xodimlari uchun maqsadli o`quvlarni tashkil etishdan iboratdir.

Inson kapitali (Human Capital) – eng qimmat resurslardan biri. Uni rag`batlantirish, rivojlantirish davlatning har tomonlama o`rishini ta'minlaydi. “Fan-texnika va axborotdagi revolyutsiya inson, uning ilmiy-ma'rifiy potensialini ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning hal qiluvchi omiliga aylantiradi”. Inson, oila, jamiyatning rivojlanishi, eng avvalo, inson kapitalini rivojlantirishni talab etadi. U uzoq muddatda – 15-25 yilda shakllanadi. Bu iqtisodchilar orasida ta'lim olgan odamlar daromadi bilan hisoblanadi. Psixologlar inson kapitali rivojlanish davrini bolaning 3-4 yoshiga to`g`ri kelishini ta'kidlaydilar. Inson kapitali uning sog`ligi, jismoniy va ruhiy farovonligi,

ijtimoiy-hissiy ko'nikmalari bilan ham chambarchas bog'liq. Uni shakllantiruvchi omillar quyidagilar:

1-ilova.

Ko'rinib turganidek, yuqoridagi sohalar bir-biri bilan chambarchas bog'liq, bittasi boshqasiz mukammallik kasb etolmaydi. Ammo bular orasida ta'lim samaradorligi alohida o'rin tutadi: jamiyatda ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish va kambag'allikni qisqartirishda muhim rol o'ynaydi.

Milliy ta'lim tizimini isloh qilish, ta'lim mazmunini, pedagog kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish dasturlarini takomillashtirish hamda mutaxassislar tomonidan darsliklarning yangi avlodini yaratishda qo'llaniladi.

Tadqiqotlarda olingan natijalar mamlakatdagi ta'lim sifati va uning xalqaro standartlarni hisobga olgan holda egallagan o'rni to'g'risida xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Xalqaro tadqiqotlar ta'lim sohasidagi milliy tadqiqotlarni sifatli o'tkazishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xalqaro standartlar darajasida yuqori iqtisodiy samaraga asoslangan milliy baholash tizimini yaratish imkonini beradi.

O'zbekistonda turli tashkilotlarning yetakchi mutaxassislarini jalb qilgan holda xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish orqali mahalliy mutaxassislarimizda monitoring tadqiqotlarini o'tkazish madaniyati rivojlanadi, ta'lim sifatini baholashning xalqaro standartlarga moslashuviga olib keladi.

Milliy ta'lim sifatini baholashdagi nazorat materiallarini xalqaro tadqiqotlarda qo'llaniladigan nazorat materiallari sifati darajasida ishlab chiqish imkonini beradi.

Dunyoda yuzdan ortiq davlat o'z mamlakatida joriy etilgan ta'lim sifatini xolisona baholash maqsadida PISA, TIMSS, PIRLS, TALIS, EGRA hamda EGMA kabi xalqaro baholash tadqiqotlarida ishtirok etadi. Jumladan, O'zbekistonning ham birinchi marta PISA va boshqa xalqaro baholash tadqiqotlarida ishtirok etishi ko'zda

tutilgan. Davlatimiz rahbarining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonida 2030-yilga borib PISA o‘quvchilarni baholash dasturi reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish bo‘yicha vazifalar belgilangan.

Ta’lim tizimining tubdan isloh qilinishiga qaratilgan bunday chora-tadbirlar uning barcha komponentlarini yanada takomillashtirish, modernizatsiyalash va kamchiliklarni bartaraf qilishga undaydi. Ta’lim tizimi oldida turgan eng dolzarb “Kim o‘qitadi?” degan savol bugungi kunda rivojlanishga qaratilgan jarayonni murakkablashtirmoqda. Sababi, ta’lim beruvchilar, xususan o‘qituvchilarning har tomonlama takomillashganligi, ularning barcha jabhalarda bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishiga bo‘lgan talab muammoning dolzarbligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, xalqaro tadqiqotlarda munosib ishtirok etish, unda yuqori natijalarga erishish maqsadida ta’lim jarayonida nafaqat ta’lim oluvchilar, balki ta’lim beruvchilarning ham rivojlanishi uchun va bu jarayonning samarali tashkil etilishi uchun ta’lim tizimining uzviylikdagi faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu tadqiqotning xalqaro miqyosda o‘tkazilishi esa mamlakatimizdagi ta’lim tizimini obyektiv baholab, muammo va kamchiliklarimizni boshqa mamlakatlar bilan solishtirishimizga va kelgusidagi rejalarimizni yanada aniqroq belgilab olishimizga xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, bugun jadal rivojlanayotgan ta’lim tizimida yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni bartaraf etishda yuqori darajadagi natijalarga erishish uchun xalqaro tadqiqotlarda mamlakatimiz ishtiroki va bu tadqiqotlarning ahamiyati ta’lim oluvchilar o‘rtasida keng tushuncha berilishi muhim va o‘rinlidir.

O‘sib kelayotgan yosh avlod vakillari ham xuddi shunday xalqaro tadqiqotlarda munosib ishtirok etishga tayyorligi natijasida mamlakatimiz inson kapitali indeksining yuqori ko‘rsatkichlarga yetishiga o‘z hissasini qo‘shsa ajab emas.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya jarayonini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-son qarori.
2. A.A.Ismoilov, X.G.Tuychieva, K.A.Mamadjonov, G.O.Tog‘aeva., Xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko‘rishga yo‘naltirilgan tayanch maktablari uchun treninglar o‘quv dasturi. “Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazining matbaa bo‘limi”. Toshkent, 2021-y.
3. Umarjonova, N. (2024). THE ROLE OF PROVIDING INTERDISCIPLINARY CONNECTION BASED ON THE USE OF MODERN EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN THE EFFICIENCY OF THE EDUCATIONAL PROCESS. B INTERNATIONAL BULLETIN OF APPLIED SCIENCE AND TECHNOLOGY (T. 4, Выпуск 5, сс. 191–194). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11254188>